MADANIY MEROS OBYEKTLARI: IQTISODIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Husanova Madina
AQXAI talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.8051953

Annotatsiya. *Mazkur maqolada turizm va uning iqtisodiy omillari haqida so‘z boradi.*

Kalit so’zlar*: monitoring, rekonstruksiya, protestlar, reprezentativ ro’yxat,*

Madaniy meros - bu ajdodlardan ijtimoiy meros orqali olingan xalq yoki jamiyatni ifodalovchi jismoniy elementlar va nomoddiy xususiyatlar to'plami. Ushbu meros binolar va yodgorliklar, ob'ektlar va san'at asarlarida aks ettirilgan moddiy madaniy elementlarni o'z ichiga oladi.

Madaniy meros bu - xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keyingi avlodlarga etkazish uchun vasiyat qilingan. Bunga e'tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me'yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, urf-odatlar va urf-odatlar, joylar, ob'ektlar va madaniyatning har qanday boshqa ifodalari kiradi.

2021-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra moddiy madaniy meros obyektlari soni 8 ming 208 tani tashkil etgan.

Quyida ularning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi ko‘rishingiz mumkin:

- Samarqand – 1607 ta;
- Qashqadaryo – 1468 ta;
- Buxoro – 829 ta;
- Toshkent – 828 ta;
- Surxondaryo – 561 ta;
- Navoiy – 437 ta;
- Jizzax – 427 ta;
- Andijon – 422 ta;
- Farg‘ona – 376 ta;
- Toshkent shahar – 354 ta;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 288 ta;
- Namangan – 274 ta;
- Xorazm – 259 ta;
- Sirdaryo – 78 ta.

Ba’zi manbalarda ko’rib qolamiz, “Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari YUNESKOning

Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga, “Boysun madaniy muhiti”, “Shashmaqom musiqasi”, “Navro‘z”, “Katta ashula”, “Askiya”, “Palov madaniyati va an’analari” nomzodlari Insoniyat nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga, Usmon Qur’oni, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar to‘plami, Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari Jahon xotirasi ro‘yxatiga kiritilgani yurtimiz madaniy merosining dunyo miqyosida e’tirof etilganiga yorqin misol bo’la oladi. Shunday ekan, bizni faxrga to’ldirayotgan meroslarimizni nima uchun qadrlamaslimiz kerak? Qancha mablag’ sarflasak shuncha oz. Ammo ba’zi obyektlarimizga endi ajratiladigan pullarning foydasi bo’larmikin?. Madaniy merosni asrab qolishga milliardlab mablag` ajratilmoqda. Lekin... Ma’lumotlarga ko’ra(daryo kanali) 2020-yil 14-dekabr sanasida bo’lib o’tgan matbuot anjumanida madaniyat vaziri o‘rinbosari, madaniy

meros departamenti boshlig‘i Kamola Oqilova madaniy meros obyektlari buzilish holati yuzasidan monitoring ishlari olib borilayotganini aytib o’tgani aytilgan. Bundan tashqari kelasi 2021-yilda madaniyat vazirligiga qarashli bo’lgan ta’mir talab madaniy meros obyektlarini rekonstruktsiya qilish uchun 70 milliard pul ajratilishi kutilayotganini ham ta’kidlagan edi. “Oxirgi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda qaysidir hududdagi madaniy meros obyektlarining buzilishi yoki ta’mir talab ekanligi keng muhokama qilinmoqda. Biz bu bo‘yicha ham monitoring ishlarini doimiy ravishda olib boramiz, mutaxassislar ishtirokida o‘rganamiz. Bugungi kunda vazirlikka qarashli 234 ta obyekt ta’mirtalab holatda. Ularni hamma viloyatda uchratish mumkin. Albatta, bir yil ichida bularning barchasini rekonstruksiya qila olmaymiz. Lekin aytish kerakki, ta’mirlash ishlari uchun yildan-yilga davlat budjetidan ko‘proq mablag‘ ajratilyapti. 2021-yil uchun 73 milliard so‘m ajratilishi rejalashtirilgan. Biz bu mablag‘ni birinchi navbatda ta’mirga muhtoj obyektlar uchun sarflaymiz”, – degan edi madaniyat vaziri o‘rinbosari.

Ya’ni bundan 2 yil avval madaniy obyektlarimiz uchun 70 milliarddan ortiqroq pul mablag’i ajratilgan bo’lishi va bu sohada sezilardi darajada natijaga erishgan bo’lishimiz kerak.

Va barchaga qiziq bolgan tarixiy obyektlarga ajratilayotgan summa bo’yicha Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasi boshlig`i Eson Abdurasulovning aytgan ma’lumotlariga yuzlandik «2022 yilda hukumatimiz tomonidan 21 mlrd 800 mln so`m mablag` 5 ta ob`ektga ajratildi. Bu bo`yicha loyihalash ishlari institutimiz tomonidan amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, Toshkent shahar mahalliy kengashi tomonidan ham deputatlarimizning tasdig`iga ko`ra 10 ta ob`ektimizga 16 mlrd mablag` ajratildi. 2022 yilning o`zida 21 ta ob`ektimizda ta`mirlash-tiklash ishlari olib boriladi.» degan javob olindi. Mazkur yil 46-aprel sanasasida o’tkazilgan president videoselektrida madaniy meros obyektlari ustida olib borilayotgan faoliyatni yurtboshimiz ham qoraladi va muzeylar faoliyatini samarali tashkil qilish masalasida viloyat hokimlarini ham javobgar qilib qo’ygan edi. Hatto yuqoridagi rahbarlarning ham bu kabi yuz beryaytgan holarlardan habari yo’q, balki habari yo’qdek go’yo. Agar rahbarlarning bunda aybi bo’lmasa, pullar ko’zlangan manzilga to’liq yetib kelishi ta’minlanishi va nazorat o’rnatillishi lozim. Bunga yechim sifatida yosh kadrlarni har bir madaniy meros obyektlariga va turistik manzillarga qo’yish kerak. Shunda quyidagi kabi holatlar yuz berish kamayadi. 27/04/22 yil o’tkazilgan tekshirishlarda respublika bo`yicha 14 ta muzeyda 3 mingdan ziyod nodir va noyob madaniy boyliklar talon-toroj qilingani aniqlangan. Jumladan, Buxoro davlat muzeyida jami 31,5 milliard so`mlik 81 ta madaniy boyliklar qalbakilariga almashtirib qo`yilgan. «Ichan qal`a» davlat muzey fondida jami 101 ta muzey ashyolari asliga to`g`ri kelmasligi ma`lum bo`lgan. Umuman, 30 yilda madaniy meros obyektlariga yetkazilgan zarar miqdori 4 trillion so‘mdan oshgan. Bir qancha madaniy meros ob`ektlariga qurilishlaru, o`zboshimchalik bilan qilingan restavrasiya ishlari sababli jiddiy ziyon yetkazilgan. Biz dunyo miqyosida tarixiy obidalarimiz … ga molik ashyolarimiz 8 mingdan ziyodligi bilan faxrlanamiz lekin unga qilayotgan munosabatimiz achinarli holatda. Mustaqillikka erishganimizdan keyin ya’ni 30 yil mobaynida madaniy meros obyektlariga yetkazilgan zarar miqdori 4 trillion so’mdan oshgan. O’zimizni mamlakatimizga mana shuncha miqdorda zarar yetkazish aqlga sig’mas … buni o’z tariximizni o’zimiz talon taroj qilyabmiz deya izohlashimiz mumkin.

Bundan tashqari 1 yil mobaynida (2020) prokuratura ma’lumotlarida 45 ta noqonuniy huquqiy-normativ hujjatlarga protestlar keltirilgan. Bundan 31 nafar shaxs javobgarlikka tortilgan (qonuniy fakt javobgarligi…) Bu ma”lumot faqatgina aniqlanganlari holos.

Aniqlanmagan va jimgina ko’z yumib qo’yilganlari yoki kelishib ishni bitirib yuborilgan holatlar soni hozircha noma’lum.

Yuqorida restovratorlarni oddiy suvoqchi va quruvchilar deyishimizga ham aytarli sabab bor. Tursunali Qo`zievning misol keltirishicha, Sitorai Mohi Xosa, Abdulla Qodiriy uy muzeyi kabilarni restavrasiya qilish uchun davlat katta mablag` ajratilgani, Ammo restavratorlar xatosi tufayli ularning tarixiy ahamiyati yo`qolganligi ma’lum bo’ldi.

Hatto yuqoridagi rahbarlarning ham bu kabi yuz beryaytgan holarlardan habari yo’q, balki habari yo’qdek go’yo. Agar rahbarlarning bunda aybi bo’lmasa, pullar ko’zlangan manzilga to’liq yetib kelishi ta’minlanishi va nazorat o’rnatillishi lozim. Bunga yechim sifatida yosh kadrlarni har bir madaniy meros obyektlariga va turistik manzillarga qo’yish kerak. Shunda quyidagi kabi holatlar yuz berish kamayadi. 27/04/22 yil o’tkazilgan tekshirishlarda respublika bo`yicha 14 ta muzeyda 3 mingdan ziyod nodir va noyob madaniy boyliklar talon-toroj qilingani aniqlangan. Jumladan, Buxoro davlat muzeyida jami 31,5 milliard so`mlik 81 ta madaniy boyliklar qalbakilariga almashtirib qo`yilgan. «Ichan qal`a» davlat muzey fondida jami 101 ta muzey ashyolari asliga to`g`ri kelmasligi ma`lum bo`lgan. Umuman, 30 yilda madaniy meros obyektlariga yetkazilgan zarar miqdori 4 trillion so‘mdan oshgan. Bir qancha madaniy meros ob`ektlariga qurilishlaru, o`zboshimchalik bilan qilingan restavrasiya ishlari sababli jiddiy ziyon yetkazilgan. Biz dunyo miqyosida tarixiy obidalarimiz … ga molik ashyolarimiz 8 mingdan ziyodligi bilan faxrlanamiz lekin unga qilayotgan munosabatimiz achinarli holatda. Mustaqillikka erishganimizdan keyin ya’ni 30 yil mobaynida madaniy meros obyektlariga yetkazilgan zarar miqdori 4 trillion so’mdan oshgan. O’zimizni mamlakatimizga mana shuncha miqdorda zarar yetkazish aqlga sig’mas … buni o’z tariximizni o’zimiz talon taroj qilyabmiz deya izohlashimiz mumkin.

Aslida tarixni asl holida saqlab kelish mushkul ish va bu o’z o’zidan tajribali restavratolarni talab qiladi, bizda esa bu sohaning mutaxassislarining o’zi kam. Hozirgacha qilingan barcha obyektlarni mutaxassis qo’li bilan rekonstruksiya qilingan deb aytish ham qiyin masala. Balki shuning uchun 10 yil oldingi maftunkor obidalarimiz bugungi kuga kelib o’z jilosini yo’qotib qoygandir. Yana bir tan olib aytishimiz kerak bo’lgan jihatlaridan biri, hozir biz “restavrator” deb aytayotganlarimiz asli oddiy suvoqchi bo’lib chiqishi ham ehtimoldan holi emas.

Ya’nikim, allaqachon o’z jilosini yo’qotib bo’lgan meroslarimizning o’z tarixiyligi va o’zgachaligini qaytarish uchun bugungi kunda ajratayotgan milliardlab pullar yetarmikin? Agar muammo pulda bo’lsa, hozirgacha ajratilgan pullar nimaga ishlatilgan bo’lishi mumkin? Maqsad ko’proq pul topish bo’lgan bo’lsa, asli buning tagida milliardlab pul yotganini bilganida edi, o’sha tenderda yutib chiqqanlar tejab qolgan pullari bugun 100 barobar bo’lib qaytayotganini korgan bo’lardi. Bundan ham achinarli holati, davlat tomonidan buzilib ketgan obidalarga hali hamon mablag’ ajratib kelinayotganligi. Foydasiz bo’lib qolgan obyektlarga pul ajratish, albatta ” mas’ul shaxslar”ga yoqib tushadi va foydasizligidan foydalanib qolishadi. Bu kabi obyektlar rekonstruktsiyasi uchun vaqti bilan davlat mablag’idan pul ajratiladi. 07.05.2022 sanasidagi ma’lumotlarga ko’ra, Tursunali Qo’ziyev O`zbekistonda haligacha qog`ozlarga qarab xulosa qilinishini, Toshkent shahri va viloyatida o`nlab qog`ozlarda turgan va mablag` ajratilib kelinayotgan madaniy meroslarning ro`yxati boru lekin borib qaralsa tagida madaniy merosning o`zi yo`qligi va Ular allaqachon umuman yo`q bo`lib ketganligini aytgan. “Bu kabi holatlar hozirgi kunda juda ko’p uchrayabdi va yuqorida aytganimdek odatiy hol bo’lib ham qoldi. Buni

oldini olish, ertaga yosh avlod ham bunga jimgina oddiy holdek qarab o’tishlari achinarli holat…” degan edi olim.

Yuqorida aytib o’tilganidek 30 yilda madaniy meros obyektlariga yetkazilgan zarar miqdori 4 trillion so‘mdan oshgani bois bosh prokuror va turizm vaziri boshchiligidagi komissiyaga:

- barcha muzeylar eksponatlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazib, yil yakuniga qadar ularning elektron bazasini yaratish;
- muzeylar rahbar va xodimlarining bilim va malakasini baholab, lavozimiga noloyiq rahbarlar o‘rniga bilimli, halol va tadbirkor yoshlarni qo‘yish topshirilgan.

Mazkur maqola sóngi 5 yillik ma'lumotlarni óz ichiga oladi.

REFERENCES

1. https://rost24.uz/oz/news/1028
2. https://lex.uz/docs/-5320217
3. https://daryo.uz/2020/12/18/ozbekistonda-madaniyat-vazirligi-tassarufidagi-madaniy-meros-obyektlarining-qanchasi-tamirtalab-ahvolda-ekanligi-malum-qilindi/
4. https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiston-respublikasida-prokuratura-organlari-tomonidan-aniqlangan-madaniy-meros-obyektlarini-muhofaza-qilish-sohasidagi
5. https://daryo.uz/2022/04/26/ozbekistonda-30-yilda-madaniy-meros-obyektlariga-yetkazilgan-zarar-miqdori-4-trln-somdan-oshgan/